

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASI AHOLISINING IJTIMOY – MADANIY HAYOTI TARIXI (KASPIYORTI VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Kaspiyorti viloyatida ham aholining ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston general-gubernatorligi, Kaspiyorti viloyati, maktablar, cherkovlar, madrasalar, shifoxonalar.

ИСТОРИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА (на примере Прикаспийской области)

Аннотация. Правительство Российской Империи приняло необходимые меры для удовлетворения духовно-духовных, просветительно-бытовых и иных социальных потребностей населения в Каспийском крае, как и во всех областях Туркестанского края.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанское генерал-губернаторство, Прикаспийская область, школы, церкви, медресе, больницы.

THE HISTORY OF THE SOCIO-CULTURAL LIFE OF THE POPULATION OF TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTURY (on the example OF the Caspian region)

Annotation. The Government of the Russian Empire has taken the necessary measures to meet the spiritual, educational, household and other social needs of the population in the Caspian Region, as well as in all regions of the Turkestan region.

Keywords: Russian Empire, Turkestan Governorate-General, Caspian region, schools, churches, madrassas, hospitals.

Rossiya imperiyasi tomonidan 1881-yilga kelib, bu hududdagi milliy boshqaruv tugatilgach, Kaspiyorti viloyatini tashkil etishi davomida aholini ijtimoiy muammolarini hal qilish borasidagi chora-tadbirlarni ko'rgandi. Kaspiyorti viloyati shaharlarida pochta idoralari, telegraf, harbiy gubernator binosi, zobit (ofitser)lar uyi, istirohat bog'lari (park), uy-joylar, harbiylar kazarmasi, cherkov binolari qurildi. Shahar infrastrukturasiga ko'ra qad ko'tarishi kerak binolardan biri cherkov bo'lishi tabiiy hol edi. Aholi asosan xristian dinining pravoslav oqimidagilar bo'lib, nemis-mennonet, molokan, starover, baptist, protestant, katolik, arrian, xlist kabi oz sonli diniy konfessiyadagilar ham mavjud edi. Shaharda harbiylar ko'p sonli bo'lib, harbiylar, turli kasbdagi rus fuqarolari bitta cherkovda diniy marosimlarni, ibodat amallarini bajargan. Cherkov ko'chib kelgan aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda (bolaga ism qo'yish, nikoh marosimini o'tkazish, cho'qinish, Rojdestvo bayramini o'tkazish, vafot etganlar bilan vidolashish va hakoza) muhim jamoat binosi hisoblangan. Cherkov, ibodat uylari qurish ishlarini yo'lga qo'yishda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan ta'sis etilgan "Turkiston eparxiyasi", "Muqaddas Sinodning Turkiston bo'limi" kabi tashkilotlar faoliyat yuritib, ular hisobiga katta mablag'lar o'tkazilgan.

Arxiv manbalarida "Muqaddas Sinodning Turkiston bo'limi" tomonidan Turkiston general-gubernatori nomiga yuborgan ko'plab xatlari saqlangan. Bu xatlarda ko'chirilgan rusiyzabon aholi uchun cherkov qurish va ochishni yo'lga qo'yish, ushbu muassasa ko'chirilganlar ma'naviy ehtiyojini qondirishda muhim ekanligi ta'kidlangan. Rus dehqonlari istiqomat qiladigan qishloq va posyolkalarda cherkov yoki ibodat uylari barpo etishga 1 -1,5 desyatina yer maydonlari ajratish, qurilish ishlariga muhandis- quruvchi va loyihachilarni jalb etish masalalari alohida xat va bildirishlarda ta'kidlangan. Rossiya imperiyasining eparxiyalari hisobiga 1910-yilda ajratilgan mablag'lar miqdori bilan tanishish asnosida, Turkiston eparxiyasiga Tobolskiy eparxiyasidan so'ng, eng ko'p mablag' ajratilgan.

Turkiston eparxiyasiga ajratilgan 176312 rubl mablag' hisobidan cherkov va ibodat uylari qurish orqali ko'chirilgan aholi diniy ehtiyojlarini qondirish, ularni o'lkada yanada mustahkam o'rnatish qolishi maqsad qilingan edi.

1904-yil ma'lumotlariga ko'ra, Kaspiy orti viloyatiga ko'chib kelgan aholining diniy tarkibi quyidagicha bo'lgan. Bu davrda ko'chib kelganlar soni 68876 nafar bo'lib, ulardan pravoslav e'tiqodidagilar 27623 nafar, jumladan, arman-grigoryanlar 8293 nafar, arman katoliklar 137 nafar, rim-katoliklar 1863 nafar, iudeylar 1013 nafar, sektantlar 145 nafar, baptistlar 1378 nafar, protestantlar 1580 nafarni tashkil etgan. Birgina Ashxobod shahrida 5507 nafar xristian diniga ibodat qiluvchi rusiyzabon aholi istiqomat qilgan. Asosan ko'p sonli pravoslav e'tiqodidagilar uchun davlat tomonidan cherkovlar qurish ishlari amalga oshirilgan. Qolgan kam sonli boshqa e'tiqoddagilar ibodat uylari bilan cheklangan.

Pravoslav cherkovlari qurish ishlari 1890-yillardan, ya'ni Kaspiyorti viloyatiga aholini ko'chirishni ommaviy bosqichida Mang'ishloq uyezdi Fort-Aleksandrovsk va Nikolaevsk posyolkalaridan boshlangan. Posyolkalarda avval ibodat uyi qurilib, diniy marosimlar shu binoda ado etilgan va keyinchalik cherkov binosi to'la-to'kis ishga tushgan. Cherkov binosi Rossiya imperiyasi markaziy guberniyalaridagi cherkovlar loyihasi asosida pishgan g'ishtdan qad ko'tarib, uning tomi metal qoplama bilan bostirilgan, temir panjarali darvozasi, ikki tomondan kiriladigan eshiklari, oynavand, yorug'lik tushadigan panjarali derazalari mavjud bo'lgan. Cherkov polli, mahobatli bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Kaspiyorti viloyatida 1892-yil xolatiga ko'ra, 10 ta cherkov mavjud bo'lib, bular Mang'ishloq uyezdi 2 ta, Fort-Aleksandrovsk va Nikolaevsk posyolkalarida, Krasnovodsk uездida uchta, Krasnovodsk shahri, Chikishlyar va Uzun adada bittadan, Ashxobod uездida 3 ta, jumladan, Ashxobod shahrida 2 ta, Qizil arvatda 1 ta, Tejen uyezdi Saraxsda 1 ta, Marv uyezdi markazi Marv shahrida 1 ta cherkov mavjud edi. Bundan tashqari cherkovlar mavjud bo'lmagan uезд olis posyolkalarida masalan, Ashxobod uyezdi Germob va Kozelnoy posyolkalarida kichik ibodat uylari mavjud edi. 1892-yil xolatiga ko'ra, viloyatda 3 ta arman cherkovi jumladan, Ashxobod va Marv shaharlari markazida hamda Qizil arvatda 1 ta mavjud edi. Yaxudiylar g'uj yashaydigan Marv shahrida 1 ta yaxudiylar sinagogasi va 2 ta molelnasi mavjud edi. Bunda yaxudiylar ibodat amallarini bajarar edi.

Cherkov qurish ishlarini moliyalashtirish uchta manbadan amalga oshirilib, birinchidan, davlat xazinasini hisobidan, ikkinchidan zemstvo mablag'lari hisobidan, uchinchidan, savobtalab shaxslarning xususiy mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Kaspiyorti viloyatida o'z ixtiyori bilan ko'chib kelganlarga asosan davlat xazinasidan cherkov qurish amalga oshirilganligi ma'lum bo'ladi. Rossiya imperiyasi hukumati cherkovlar ochish, ayollar ibodatxonasi (monastri) qurish kabi jihatlarga katta e'tibor qaratdi. Cherkovlarni ruhoniylar ("Muqaddas ota"), ruhoniylar yordamchisi, dyakon, qo'ng'iroq chaluvchi monax va monashka kabilar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Cherkovlar qoshida prihod maktablari, erkak va xotin-qizlar bilim yurtlari tashkil etildi. Ularning ayrimlarida ruhoniylar diniy ilmlardan saboq berdi, ruhoniylar va diniy xizmatchilarga moddiy shart-sharoitlar yaratildi.

Diniy muassasalar qoshidagi maktab o'qituvchilari 1910-1912-yillarda har yilda 1500 rubl maosh, 500 rubl oziq-ovqat puli, kiyim-kechak uchun 250 rubl, shuningdek, 100, 150 rubl miqdorida ijara puli ham olgan. Ruhoniylar yordamchisi 750-850 rubl, dyakon 650 rubl maosh olgan. Ular cherkovga dehqonlar olib kelgan xayr-ehsondan ham bahramand bo'lardi. Cherkov qoshidagi maktablar va bilim yurtlariga har yili davlat hazinasidan darslik, o'quv qo'llanma va o'quv

qurollari uchun 100 rubl, hunarmandchilikka ixtisoslashgan inventarlar uchun 800 rubl, cherkov ta'minoti uchun 300 rubl ajratilgan. Agar o'qituvchi alohida xona yohud ijarada tursa unga yiliga 500 rubl miqdorida ijara puli ham berilgan. Cherkov huzuridagi o'quv yurtlarida "Xudo duolari" (diniy bilim) bilan birga odob-ahloq tarbiyasi, hisob-kitob (arifmetika), jug'rofiya, rus tili ham o'qitilgan. Asosan savod chiqarishga qaratilgan bu o'quv muassasalari cherkov binosida yoxud cherkov qoshidagi alohida binoda joylashgan. Ulardagi o'quvchilar 2-3 yil ta'lim olib, qiz-yigitlar, birga, yoki alohida o'qitiladigan sinflar bo'lgan. Xonadoni ko'p sonli posyolkalarda ta'lim oladigan o'g'il-qizlar soni 120-150 nafarni, ayrimlarida 190-200 nafarni, kichik qishloqlarda 10 tadan 35 tagacha, ko'pi bilan 40-50 tagachani tashkil etardi.

Xullas, cherkov va ibodat uylari ko'chirilgan rus aholini ma'naviy-ruhiy, maishiy turmushida ehtiyojmand bo'lganligini tarixiy dalillar ko'rsatadi.

Viloyatda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida mahalliy aholi va ko'chib kelganlarning farzandlariga tahsil beradigan turli pog'onadagi o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan.

Ma'lumki, asrlar davomida tub joy aholiga ta'lim beradigan ikki pog'onali musulmon maktablari faoliyat olib borgan. Quyi ta'lim dargohi maktab (maktabxona) bo'lib, ular asosan masjidlar qoshida bo'lgan, bunday maktablar bir sinf xonasidan iborat bo'lib, "qorixona" yoki savod chiqarish maktablari deb ham yuritilgan. Madrasalar o'rta va oliy ta'lim berishga mo'ljallangan edi.

General Fon Kaufman topshirig'iga ko'ra Turkiston o'lkasida uch oy davomida tekshirish olib borgan Rossiyalik akademik A.Middendorf madrasa va maktablar soni g'oyat ko'pligini, shuningdek, tub aholining savodlilik darajasi, shu jumladan, harflarni bilish darajasi yuqorililigini ibrat olsa bo'lgudek namuna ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. O'lka ma'muriyati A.Middendorfning bunday xulosalaridan tashvishga tushib, aholi turmush faoliyatining barcha sohalarini o'z nazorati ostiga olishga intilib, 1884 yilda hisob bo'yicha uchinchi general-gubernator N.O.Rozenbax boshchiligida musulmon o'quv yurtlari va masjidlar, vaqflarni ro'yxatga olishni tashkil etishdi, biroq bu ish oxiriga yetkazilmadi.

Maktab va madrasalar faoliyati masalalariga to'xtab o'tgan rus mualliflari V. P. Nalivkin, S. M. Grameniskiy, N. P. Ostroumov, A. P. Xoroshxin va boshqalar – uni qasddan yomonlab ko'rsatganlar, tub millatlar bolalari hamda yoshlarning an'anaviy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, madrasada o'qishga ishtiyoqi saqlanibgina qolmay, balki ortib borayotganining ishonarli dalil-isbotlari haqida lom-mim demaganlar. Biroq sezilarli darajada yangilangan madrasalar tarmog'ining rivojlanishi tub aholi milliy o'zligini anglashning o'sishini, uning ziyoli kuchlarining ommani ma'rifatli qilish shiori ostidagina emas, balki Kaspiyorti viloyatini mustamlaka qaramligidan siyosiy, ijtimoiy ozod qilish shiori ostida, ancha kuchli harakatining yuzaga kelishini belgilab bergan jiddiy omil bo'ldi. Oliy darajadagi musulmon ruhoniylarining bir qismi mustamlakachilarning millatga qarshi amaliyotini qo'llab-quvvatlab turgan bir paytda Kaspiyorti viloyatida ko'plab badavlat kishilar, zamindorlar, savdo-sanoat doiralari orasidan ham, mavjud madrasalar qurilishiga faol ko'maklashdilar. Shu bois 1917-yilga kelib ularning umumiy soni o'lka bo'yicha 440 dan oshib ketdi.

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyingi birinchi davridayok o'lka va hududlar ma'muriyati, musulmon ruhoniylar ierarxiya tuzilmasini o'zgartirish hamda madrasa va maktablar ustidan ma'muriy va siyosiy nazorat o'rnatishga harakat qilindi. Yirik shaharlarda shayxulislom, qozikalon lavozimlari bekor qilindi, an'anaviy sudlar – o'troq aholidagi qozi va ko'chmanchi aholidagi biy sudlari faoliyati sohasi cheklandi va xokazo.

Avvalo, tub joy aholi farzandlari uchun rus-tuzem maktablarini ochish orqali mahalliy millat vakillari orasidan quyi bo'g'in boshqaruviga "sadoqatli", "rusparast" kishilarni tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Rus-tuzem maktablarining barchasida ham sifatli o'qish va ta'lim berilmas, o'quvchilar nazorati bo'sh bo'lishi bilan birga, ular ayrimlarida "Velikorost" millatchilik qarashlari mavjud edi.

Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrdagi an'anaviy maktablarga kelganda esa ularni viloyat tub aholisi ta'lim sohasidagi ma'muriy choralar vositasida asta-sekin surib chiqarish, rus-

42 tuzem maktablarini imkoni boricha ko'proq ochishdan iborat ruslashtirish amaliyoti Rossiya imperiyasi hamda mustamlakachi ma'muriyat uchun umuman samarasiz bo'ldi. Buning asosiy sabablari, bizningcha ko'p jihatdan aslida mustamlakachilarning madrasalar faoliyatiga aralashuviga aylanib ketganligi, ularga "bepisand bo'lish" siyosati oqibatidir. Shuni va boshqa bir qancha omillarni hisobga olib, Turkiston musulmon o'qituvchilarining o'lka s'ezdi (1917-yil 20-23 may) rus-tuzem maktablarini ta'lim ona tilida olib boriladigan, rus tili o'quv fanlaridan biri sifatida o'qitiladigan milliy maktablarga aylantirishni yoqlab chiqdi. Jadidchilik harakatining faollari ilk yangi usul maktablari tashkil etilayotgan dastlabki paytlarda shunday o'zgarishlar qilishni taklif etishgandi.

O'lkada jadidchilik harakati avj olib, taraqqiyparvarlar tomonidan "usuli savtiya" (tovush maktablari, "yangi usul") maktablari ochilib, qisqa vaqtda o'quvchilar savodini chiqarishga o'tila boshlangandi. Bu muammolar haqida O'zbekiston tarixida bir qator tadqiqotlar yaratildi va bu yo'nalishdagi izlanishlar davom etmoqda. Shunday vaziyatda yuzaga kelgan jadidchilik eng avvalo o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarini amalga oshirishi tufayli rivojlanib, mustahkamlandi. Kaspiyorti viloyatida ilk yangi usul maktablari XIX asr 80-yillar oxirida ochildi. Dastlab bu maktablarda tatar millati vakillari o'qituvchilik qilishgan. N.P.Ostroumov XIX asr 80-yillar oxirida mustamlakachi ma'muriyatda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh inspektori lavozimini egallab turgani hamda sodir bo'lib turgan voqealarga, ayniqsa, musulmon aholi ta'limi sohasidagi jarayonlarga bevosita aloqador bo'lgani bois, uning Kaspiyorti viloyati shaharlarida ham yangi usul maktablarining paydo bo'lishi vaqti borasidagi ma'lumotlariga ishonmaslikka asos yo'q.

Rus posyolkalarida turli toifadagi maktablar ochish 1890 yildan boshlanganligi, ular asosan 1-2 sinfli savod o'rgatish o'quv dargohlari ekanligi ayon bo'ldi. Kaspiyorti viloyati uездlarida 1910-yilga qadar 10 ta maktab ochilgan, 1915-yilda ular soni 20 tadan oshib ushbu maktablarning asosiy sinflari cherkov binosida joylashgan.

Rus posyolkalariga yuborilgan o'qituvchilarni ijtimoiy ta'minlash maqsadida ular shart-sharoiti yaxshilangan va maoshlari oshirilgan. O'quv bilim yurtlari va prixod maktablari o'qituvchilarining maoshi bir yilda 1500 rubl qilib belgilangan. Ularga 500 rubl oziq-ovqat uchun, 250 rubl kvartira (ijara haqi) puli ham berilgan. O'qituvchilar cherkov binosidagi alohida xonada, maktablarda va ayrim shaxslar xonadonlarida ijarada turishgan. Maktablarga hukumat bir yil davomida o'quv qo'llanmalari uchun 100 rubl, hunarmandchilik jihozlari uchun 300 rubl, maktab binosini ta'mirlash uchun 800 rubl, cherkov ibodat ehtiyojlari uchun -300 rubl mablag' ajratilgan.

Kaspiyorti viloyatida 1892 yil hisobiga ko'ra 12 ta rus maktab va bilim yurtlari hamda 1 ta cherkov qoshidagi arman prixod maktabi bo'lib, ularda ja'mi 645 nafar ikkala jinsdagi o'quvchilar ta'lim olar edi. Musulmon maktablari bu davrda 163 ta bo'lib, ularda 2429 nafar mahalliy aholi farzandlari ta'lim olar edi.

Rossiya imperiyasi davrida Kaspiy orti viloyati o'rta ta'lim tizimi haqida to'xtalganda, Ashxobod erkaklar va ayollar gimnaziyasi, Marv kasb-hunar texnikumilarini misol keltirish mumkin. 1914 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, Ashxobod erkaklar gimnaziyasida 519 nafar, ayollar gimnaziyasida 592 nafar, Marv kasb-hunar texnikumida 133 nafar o'quvchi tahsil olgan. Marv kasb-hunar texnikumi qatnovchi o'quvchilar tarkibi tahlil qilinganda, 133 nafar o'quvchidan 74 nafari rus, 33 nafari arman, 7 nafari yahudiy, 13 nafari fors, 4 nafari turkman, 1 nafar xivalik va bir nafari nemis millati farzandlari edi.

Kaspiyorti viloyatidagi 1-2 sinfli boshlang'ich bilim yurtlari haqida to'xtalganda, 1914-yil ma'lumotlariga ko'ra 72 ta bunday quyi bilim yurtlari keltirilgan. Ular asosan, Tumanovskiy, Vozelkovskiy, Dmirievskiy, Komarovskiy, Yablonovskiy, Nije Skobelevskiy, Asxabadskiy, Fort-Aleksandrovskiy, Iolatan, Murg'ob, Xivaobod, Cheleken, Taxtabozor, O'tamish va hk. rus-tuzem bilim yurtlari edi. Kaspiyorti viloyatidagi bu bilim yurtlari asosan davlat tomonidan moliyalanib, 1915-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bir yillik ajratmalar 48.841 rublni tashkil etgan. Ushbu bilim yurtlaridagi o'quvchilar soniga e'tibor berganda, 1912-yilda 270 nafar, 1913-yil 251 nafar, 1914-yil 392 nafar o'quvchi ushbu bilim yurtlarini tamomlagan. 1915-yildagi Kaspiyorti viloyatida o'quv yurtlaridagi milliy etnik tarkibga e'tibor berganda, 3688 nafar rus, 45 nafar polyak, 60 nafar rus fuqaroligidagi nemis, 210 nafar arman, 2 nafar gruzin, 16 nafar yaxudiy, 392 nafar turkman,

139 nafar qirg'iz, 86 nafar fors, 49 nafar tatar, 72 nafar boshqa millat vakillari bolalari ta'lim olar edi.

Kaspiyorti viloyatidagi milliy maktablar haqida to'xtalganda, 1916-yil 1 iyul ma'lumotlariga ko'ra 186 tani tashkil etib, uездlar bo'yicha taqsimlaganda, Ashxobod uездida 30 ta, Krasnovodsk uездida 33 ta, Tajan uездida 50 ta, Marv uездida 73 tani tashkil etadi. Ushbu 186 ta maktabning 1 tasi madrasa binosida, 14 tasi ijara binolarda, 84 tasi diniy vakillarning xonadonlarida, 47 tasi shaxsiy binolarda, 25 tasi machitlar qoshida hamda 15 tasi jamoat xonadonlarida joylashgan edi. Kaspiyorti viloyati uездlaridagi 186 ta maktab diniy vakillarini tahsil olgan joylari bo'yicha taqsimlasak, ushbu maktab o'qituvchi (mulla) quyidagicha taqsimlanadi. Kaspiyorti viloyati markazida 111 nafar, Buxoroda 64 nafar, Xivada 9 nafar, Eronda 1 nafar, mahalliy rus-tuzem bilim yurtida 1 nafari ta'lim olgan.

Rossiya imperiyasi Kaspiy orti viloyatini tashkil etganidan so'ng, ko'chirilgan aholini sog'lig'ini saqlash, ushbu sohada zamonaviy tibbiyotni joriy qilish choralarni ko'rdi. Viloyat hududi ekologik jihatdan ohir hududlar sirasiga kirgan. Ayniqsa viloyatda suv tarkibining yomonligi sababli aholi isitma, bezgak, dizenteriya hamda Penda yarasi va moxov kasalligi bilan ko'plab kasallangan va bu og'ir oqibatlariga olib kelgan.

Kaspiy orti viloyati statistik ma'lumotlariga ko'ra, 1904-yilda viloyatda shtatli va erkin vrach, feldsher va akusherlar taqsimoti quyidagicha bo'lgan.

№	Viloyat uездlari	Vrachlar soni	Feldsherlar soni	Akusherlar soni
1	Ashxobod	10	9	5
2	Krasnovodsk	1	4	1
3	Mang'ishloq	2	3	1
4	Marv	1	6	1
5	Tajan	1	4	2

Viloyatda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida 1914-yil ma'lumotlariga ko'ra, Kaspiy orti viloyati 5 ta uезд shahrining uchtasida, ya'ni Ashxobod, Marv va Mang'ishloq uезд markaziy shaharlarida shahar kasalxonalari faoliyat yuritgan. Ashxobod shahar shifoxonasi 60 o'rinli bo'lib shundan, 4 ta o'rin yuqumli kasalliklar, 10 ta ruxiy kasalliklar, 2 ta o'rin tug'ruq bo'limiga ajratilgan edi. Shifoxona ta'minoti shahar mablag'lari hisobidan moliyalangan. Ashxobod shahar shifoxonasida 2 nafar vrach, 5 nafar feldsher, 2 nafar akusher faoliyat yuritgan. Shahar shifoxonasi pullik shuningdek, kam ta'minlangan mahalliy va ko'chib kelgan aholi uchun tekin tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan.

Shuningdek, 68 o'rinli Ashxobod temiryo'l shifoxonasi ham mavjud bo'lib, 20 ta o'rin yuqumli kasalliklar, 6 ta ruxiy kasalliklar, 6 ta o'rin tug'ruq bo'limiga ajratilgan edi. Ashxobod temiryo'l shifoxonasida 3 nafar vrach, 6 nafar feldsher, 2 nafar akusher faoliyat yuritgan. Ashxobod temiryo'l shifoxonasi asosan temiryo'l bo'limiga xizmat ko'rsatib, pullik shuningdek, kam ta'minlangan mahalliy va ko'chib kelgan aholi uchun tekin tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan.

Bundan tashqari 40 o'rinli Qizilrvat temiryo'l shifoxonasi ham mavjud bo'lib, unda 1 nafar vrach, 5 nafar feldsher, 1 nafar akusher faoliyat yuritgan.

Bu davrda Krasnovodsk uězdi temiryo'l shifoxonasi ham mavjud bo'lib, uning 26 ta o'rin yuqumli kasalliklar va onalar bo'limiga ajratilgan. Ushbu shifoxona Krasnovodsk temiryo'l bo'limi tomonidan moliyalangan. Unda 1 nafar vrach, 7 nafar feldsher, 1 nafar akusher faoliyat yuritgan. Shifoxona temiryo'l ishchilariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatgan.

Cheleken sanoat shifoxonasi mavjud bo'lib, unda 10 ta o'rin yuqumli kasalliklar va tug'ruq bo'limlariga ajratilgan. Bunda neft koni ishchilari tibbiy muolaja olgan. Ushbu shifoxonada 1 nafar vrach va ikki nafar feldsher faoliyat yuritgan. Bu shifoxona mahalliy yig'imilar va kon mablag'lari hisobidan moliyalangan.

Krasnovodsk uездida asosan ko'chib kelgan rusiyzabon aholi Krasnovodsk shahar ambulatoriyasi, Krasnovodsk temiryo'l shifoxonasi, Krasnovodsk porti tibbiy qabul qilish bo'limi,

44 Qozonjik temiryo'l shifoxonasi, Cheleken sanoat shifoxonasi, Qoraqal'a feld'sherlik punkti, Hasanquli fel'dsherlik punkti, Jebel temiryo'l fel'dsherlik punkti, Mo'llaqora loy bilan davolash shifoxonasi, Krasnovodsk "Ufra" sihatgohiga tibbiy xizmatlar olish uchun murojaat qilishgan.

Bu davrda Marv uyezdi markazida 20 o'rinli shahar shifoxonasi ham faoliyat yuritgan. Bu shifoxona shahar mablag'lari hisobidan moliyalanib, unda tibbiy xizmatlar kam ta'minlangan shahar aholisiga bepul bo'lib, kunlik yotib davolanish uchun statsionar pullik davolanish bo'limlari ham mavjud bo'lgan.

Ushbu shahar shifoxonasi huzudida 10 o'rinli davolash klinikasi ham mavjud bo'lib, 1 nafar vrach va 1 nafar fel'dsher faoliyat yuritgan. Ushbu davolash klinikasi rusiyzabon aholi bilan birga mahalliy aholiga ham tibbiy emlash xizmatlar ko'rsatib, bu muassasa mahalliy zemstvo mablag'aridan moliyalangan. Marv uyezdi Iolatan jamoat shifoxonasi 12 o'rinli bo'lib, unda himoyalangan yuqumli kasalliklar bo'limi mavjud bo'lgan. Unda 1 nafar vrach, 2 nafar fel'dsher faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, Marv uyezdida alohida ko'z kasalliklari shifoxonasi, Marv va Kushka mahalliy lazaret tibbiyot bo'limlari, Taxtabozor va Aleksevskiy fel'dsherlik punktlari, Marv temir yo'l bo'limi shifoxonalari mavjud bo'lgan.

Mang'ishloq uyezdida ham tibbiyot muassasalari jumladan, zemstvo mablag'laridan moliyalanadigan, 10 o'ringa ega Mang'ishloq mahalliy zemstvo davolash bo'limi, Fort Aleksandrovskiy mahalliy lazaret shifoxonasi, Saraxs, Kaxkin, Meanin, Nikolaevskiy, Kinderlinskoy, Qorotov, Karazachinskiy, hamda Dolgiy ostrov nomli feld'sherlik punktlari mavjud edi. Bundan tashqari, Ashxobod va Krasnovodsk uyezd markazlarida tibbiy kuzatuv stansiyalari ishlab turgan. Viloyatda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida ambulatoriyalar faoliyat yuritgan. 1914-yil ma'lumotlariga ko'ra, Marv uyezdi markazida 4 ta ambulatoriya, qolgan 4 ta uyezdida 1 tadan ambulatoriyalar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Bundan ko'chib kelgan rusiyzabon hamda mahalliy aholi vakillari tibbiy xizmatlar qabul qilgan.

1914-yil xolatiga ko'ra, Kaspiyorti viloyatida 16 ta feldsherlik punktlari mavjud bo'lib, uyezdlar bo'yicha taqsimlaganda uyezdlar misolida taqsimlaganda Ashxobod uyezdida 3 ta, Marv uyezdida 2 ta, Tajan uyezdida 3 ta Krasnavodsk uyezdida 2 ta, Mang'ishloq uyezdida 6 ta feldsherlik punktlari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan.

Kaspiyorti viloyatida 15 ta uyezd va qishloq dorixonalari mavjud bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Dorixonalarni uyezdlar misolida taqsimlaganda Ashxobod uyezdida 6 ta, Marv uyezdida 5 ta, Tajan uyezdida 3 ta Krasnavodsk uyezdida 1 ta dorixona mavjudligi ma'lum bo'ladi. Lekin viloyat ma'muriyati qanchalik darajada aholini ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ehtiyoj qondirish borasida ishlarni olib bormasin, turli sabablarlarga ko'ra (iqtisodiy, tashkiliy) ular yetarli darajada tashkil etilmadi.

Ta'kidlash joizki, rus manzilgohlaridagi aholiga sog'liqni saqlash borasida xizmat ko'rsatish jarayonida bir qator muammolar mavjud edi: Birinchidan, tibbiyot xodimlari yetishmasligi, ikkinchidan, tibbiyot muassasalarining binolari talabga javob bermaydigan uylarda joylashganligi, uchinchidan, esa dori-darmonlarni o'z vaqtida yetkazib berilmasligi, to'rtinchidan, posyolkalarda, ayniqsa, shahar markazlarida sanitariya-gigiena holati nochorligi va hakovolarni qayd etib o'tish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Kaspiyorti viloyatida ham ko'chirilgan aholining ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi. Viloyatda rus dehqonlari mustahkam o'rnatib qolishi uchun cherkov va ibodat uylari barpo etildi, ushbu diniy muassasalar, ular qoshidagi o'quv muassasalari kadrlar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. Ko'chirilgan aholining bolalarini turli pog'onadagi o'quv yurtlariga jalb etish vazifalari bajarilishi yo'lida imkon qadar chora-tadbirlar belgilandi.

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi vrach va feldsherlarni safarbar qilish, kasalxona, dorixona (apteka), ambulatoriyalar ochish, aholiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq sezilarli amaliy qadamlar qo'yildi. Biroq, Rossiya imperiyasi hukumatining ijtimoiy siyosati kutilgan natijalarni bermadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон миллий архиви, И-1-фонд, 9-рўйхат, 276-йиғма жилд, 21,22,23,24-варақлар.
2. О Колонизации Туркестана//Речь.1908.-№46.
3. Обзор Закаспийской области 1904 год, Г.Асхабад, 1905 г. С.-3.
4. Обзор Закаспийской области 1892 год, Г.Асхабад, 1893 г. С.-18.
5. Ўзбекистон миллий архиви, И-961-фонд, 1-рўйхат, 15589-йиғма жилд, 45,46,47,48-варақлар.
6. Обзор Закаспийской области 1892 год, Г.Асхабад, 1893 г. С.-204-205.
7. Ўзбекистон миллий архиви, И-47-фонд, 1-рўйхат, 4112-йиғма жилд,(1884й),11,12-варақлар.
8. Ўзбекистон миллий архиви, И-47-фонд, 1-рўйхат, 4213-йиғма жилд,16,17-варақлар
9. Наша колонизация Средней Азии (Русские посёлки в Туркестан) // Туркестанский сборник. Том.429.-С.240-244.
10. Ўзбекистон миллий архиви, И-961-фонд, 1-рўйхат, 1878-йиғма жилд, 576-варақ, 1081-йиғма жилд, 89-варақ, 89-варақнинг орқаси.